



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 240-243 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR TAHLILI



**Raxmonazarov Paxlovon Yigitaliyevich**

Farg'ona politexnika instituti,  
"Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti,  
e-mail: [p.rahmonazarov@ferpi.uz](mailto:p.rahmonazarov@ferpi.uz)

**Maxkamova S. Sh.,**

Farg'ona politexnika instituti,  
"Iqtisodiyot" kafedrasida assistenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakat mintaqalari iqtisodiy barqarorligiga va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, maqolada Farg'ona viloyati iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida ekonometrik tahlil amalga oshirilgan va tahlil natijalari asosida mintaqani yanada rivojlantirish to'g'risidagi takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy ko'rsatkichlar, korrelyatsion-regression tahlil, qishloq xo'jaligi, tarmoq va sohalar, innovatsion rivojlanish, inson kapitali.

**Kirish qismi.** Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi soha va tarmoqlar barqarorligi qatori mintaqalarning ham muntazam rivojlanishiga bog'liqdir. Ya'ni, mintaqalarning barqarorligi odatda makroiqtisodiy barqarorlikni va yuqori rivojlanish sur'atlarini ta'minlaydi. Shu o'rinda, milliy iqtisodiy tizimda viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy holatini tadqiq etish, shuningdek, ularning bo'linmalari bo'lgan shahar hamda tumanlar iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash muhimdir[1].

Bizga ma'lumki, iqtisodiy ko'rsatkichlar mavjud tabiiy resurslarni tasarruf etish asosida yuzaga keladi. Shunday bo'lsada, xom ashyo resurslarini ishlatish inson omili asosida amalga oshiriladi. Demak, mintaqaning iqtisodiy barqaror rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qilish uchun mintaqadagi ko'rsatkichlarni kompleks tadqiq etish lozim[2].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Zamonaviy rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarning rivojlanishida barqarorlik va muvozanatlik masalasi muhim o'rin tutmoqda. "Barqaror rivojlanish" bo'yicha mahalliy olimlarimiz ishlarida ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, I.Qayumova ushbu tushunchani ko'p o'lchamli va ko'p qirrali ko'rsatkich bo'lib, mamlakatda ijtimoiy, institusional va siyosiy o'zgarishlarni, aholining turmush darajasini, inson ehtiyojlarini qondirish saviyasini ifodalaydi, deb ta'rif beradi. Shuningdek, muallif fikricha, "Barqaror iqtisodiy rivojlanish" kishilar hayotiy ehtiyojlarining qondirilishini, yashash sharoitini, tibbiy xizmatni, ta'lim olish va barkamol taraqqiy etish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi[3]. Sh.Shodmonov fikricha, "Barqaror

rivojlanish" iqtisodiyotning inqirozlarsiz, katta siklik tebranishlarsiz, bir maromda, barqaror, samarali va muvozanatli rivojlanishini ta'minlash bilan uning turli tomonlari, sohalari va bo'limlari o'rtasida muayyan mutanosiblik bo'lishini taqozo etadi[4].

Iqtisodiy tizimning barqarorligi bu tizimning tashqi ta'sir natijasida ichki muhit elementlari orasidagi muvozanatni mustaqil ta'minlash imkoniyatidir[5]. Umumiy holda, tashqi muhitning salbiy ta'sirlari sharoitida tizim o'z elementlarining xususiyatlari, sifat va miqdor xossalari hamda o'zaro aloqadorligini saqlay olishi tushuniladi. Boshqacha aytganda, tizim noqulay tashqi ta'sirda o'z vazifalarini zaruriy darajada bajarsa barqaror hisoblanadi.

Demak, u yoki bu muallif tomonidan berilgan tariflar turlicha bo'lsada, ular diqqat markazida jamiyat iqtisodiy rivojlanishi va tarmoq va sohalari muvozanati nazarda tutiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlili yordamida barqarorlikka kuchli ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va buning natijasida ushbu omillarni ta'sirini ijobiyashtirish takliflari ishlab chiqilgan. Bunda Farg'ona viloyatining 2014-2023 yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil va prognoz parametrlarini ishlab chiqishda ijtimoiy-iqtisodiy holat va iqtisodiy ko'rsatkichlar asos qilib olinadi. Istiqbolda, mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlash muhim hisoblanadi[6]. Bu jarayon mintaqalar imkoniyatlaridan samarali va oqilona foydalanishga bog'liq hisoblanadi.

Mintaqalarni samarali boshqarishda tashqi va ichki muhitga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Ichki manbalar sifatida tarmoq va sohalarning iqtisodiy tizim barqarorligiga ta'siri aniqlanadi[7].

Tadqiqot davomida ichki muhit omillari ta'sirini baholashda korrelyatsion-regression tahlil natijalariga asoslanadi. Tahlilni amalga oshirishda Farg'ona viloyatining yalpi hududiy mahsuloti ( $Y$ ) va unga bog'liq omillar ( $X_1$ - Sanoat tarmog'ining o'sish sur'ati;  $X_2$ - Qishloq xo'jaligining o'sish sur'ati;  $X_3$ - Pullik xizmatlarning o'sish sur'ati;  $X_4$ - Pudrat ishlarining o'sish sur'ati;  $X_5$ - Import hajmining o'sish sur'ati;

$X_6$ - Iqtisodiy faol aholining o'sish sur'ati;  $X_7$ - Ish bilan bandlikning o'sish sur'ati;  $X_8$ - Ishsizlik darajasi)) – tarmoqlar rivojlanishini o'z ichiga olgan tenglik ishlab chiqildi.

$$Y = f(X_1, X_2, X_3, X_4, X_5) \quad (1)$$

Ekonometrik usullar asosida Farg'ona viloyati iqtisodiy barqaror rivojlanish omillari sifatida sanab o'tilgan sanoat tarmog'i, qishloq xo'jaligi tarmog'i, pullik xizmat ko'rsatish, pudrat ishlari va import hajmining o'sish sur'ati o'rganildi va quyidagi regressiya tenglamasi hosil qilindi:

$$Y = 18,593 + 0,082 * X_1 + 0,381 * X_2 + 0,266 * X_3 + 0,031 * X_4 + 0,044 * X_5 \quad (2)$$

Ekonometrik tadqiqot natijalarini ko'rsatishicha, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 1 foizga o'sishi 0,38 foizga, pullik xizmat ko'rsatish hajmining 1 foizga o'sishi - 0,27 foizga, sanoatning 1 foizga o'sishi - 0,08 foizga, pudrat ishlari 1 foizga o'sishi - 0,03 foizga va import hajmining 1 foizga o'sishi - 0,04 foizga viloyatda yaratilgan

YAHMning o'sishini ta'minlamoqda. Tahlil davomida kuchli ta'sir etuvchi tarmoqlar sifatida qishloq xo'jaligi, pullik xizmat ko'rsatish va sanoat ekanligi aniqlandi.

Iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun mamlakat va mintaqalardagi tarmoq va sohalarda innovasion faoliyatni faollashtirish muhim hisoblanadi. Innovatsiyani amalga oshirish ikki yo'nalishda olib boriladi. Ya'ni, asosiy va inson kapitalini rivojlantirish orqali innovasion iqtisodiyot shakllantiriladi. Mintaqani boshqarishda bu yo'nalishlardan birini tanlash muammosi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiyotni joriy rivojlanishiga kuchli ta'sir etuvchi omillarni e'tiborga olish lozim[8]. Bu omillarni tanlashda ekonometrik modellarning ahamiyati yuqori va ekonometrik usullar yordamida amalga oshiriladi. Ekonometrik usullar asosida aniqlangan elastiklik qiymatlarida kuchli ta'sir iqtisodiy faol aholi va ish bilan bandlikning o'zgarishi hisobiga yuz bermoqda. Tahlil davomida ishlab chiqilgan regressiya tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = 2,181 * X_6 + 2,415 * X_7 - 0,258 * X_8 - 365,0749033 \quad (3)$$

Ekonometrik tadqiqot asosida olingan kattaliklarda iqtisodiy faol aholining 1 foizga o'sish sur'ati YAHMni 2,18 foizga, ish bilan bandlarning o'sish sur'ati esa - 2,41 foizga o'sishini ta'minlayotgan bo'lsa, ishsizlik darajasining 1 foizga ortishi YAHMni -0,26 foizga kamaytirmoqda.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot ishi natijalardan ko'rinadiki, iqtisodiyotga kuchli ta'sir etuvchi omil mehnat bozori ko'rsatkichlari ekanligini aniqladik. Ya'ni, ish bilan bandlikning o'sishi YAHMga kuchli bog'liqlikni aks ettirmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tadqiqotimiz asosida olingan ekonometrik natijalarga muvofiq quyidagi xulosalarga keldik:

1. Viloyatning asosiy yetakchi tarmog'i sifatida qishloq xo'jaligi yuqori regression ta'sirchanlikni ifodalamoqda. Jumladan, ushbu tarmoqning YAHMdagi ulushi yuqori bo'lib, viloyat agrar-industrial rivojlanishni aks ettirmoqda.

2. Import hajmining o'zgarishi viloyatda iqtisodiy-ekologik tizim rivojlanishiga kuchsiz bo'lsada, ijobiy ta'sir ko'rsataytganligini aniqladik. Buning sababi - yangi texnologiyalarning kirib kelishi hamda sanoat tarmog'ining modernizatsiya darajasi texnologiyalar transferiga kuchli bog'langanligi bilan asoslanadi.

3. Viloyat iqtisodiyotiga real sektorning ta'siri kuchli bo'lib, YAHMdagi ulushi 65,5 foizga yetib, xizmatlarga nisbatan 2 barobar ortiq holatni aks ettirmoqda (65,5 foiz-real sektor, 34,5 foiz xizmatlar sohasi), lekin YAHMning o'sishiga qo'shayotgan hissasi esa 0,46 birlik bo'lib, o'rtadagi nisbat 1,7 barobarga teng. Bu esa, real sektorning miqdoriy o'zgarishlari bilan birga samaradorlikka e'tibor qaratishni talab qiladi.

Yuqoridagi amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik biznes sub'yektlari faoliyatini kengaytirish;
- kichik biznes va yirik biznes o'rtasidagi integratsiyani kengaytirish hamda klaster tizimida ularning ham ishtirokini yo'lga qo'yish;
- viloyat tumanlarining ixtisoslashuv darajasiga qarab sanoat korxonalarini joylashtirish;

- real sektor sub'yektlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash. Jumladan, chora-tadbirlar ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Tashqi va ichki muhit o'zgaruvchilari uchun alohida tadbirlar belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tashqi o'zgaruvchilarda bozor samaradorligi mezon sifatida olinsa, ichki o'zgaruvchilarda ishlab chiqarish resurslaridan oqilona va samarali foydalanish jarayonini boshqarishni nazarda tutamiz.

Demak, tadqiqot davomida aniqlangan natijalar asosida ishlab chiqilgan chora tadbirlarni va takliflarni mintaqalarda boshqaruv qarorlarida foydalanish mintaqalarning yanada iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Bu esa albatta, mamlakat milliy iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yigitalievich, R. P., & Ahmadjonovich, U. A. (2021). The Economic Environmental Systems And Their Effective Management. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(09), 6-13.
2. Rakhmonazarov, P. Y., & Usmonov, A. A. (2021). Analysis of ecological indicators of territories. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(10), 6-14.
3. Kayumova I.O. O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarini ekonometrik tadqiqoti. Iqt. fan. dok. dis. –T.:, 2012. 21-b.
4. Iqtisodiyotda tejamkorlik va mutanosiblikni ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari. Sh.Sh.Shodmonov (va boshq.): TDIU. Monografiya. –T.: ADIBNASHRIYOTI, 2010. 37-b.
5. Ahmadjonovich, U. A., & Yigitaliyevich, R. P. (2023). The Influence of Investment Activity on The Area of The Gross Domestic Product. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 19, 41-45.
6. Малышев А.А., Солодков Н.Н. Факторы, влияющие на устойчивость эколого-экономической системы // –М.: №1(30). 2014. С. 129-135.
7. Ahmadjonovich, U. A. (2023). Use of Econometric Model in Forecasting Gross Regional Product. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 1(3), 73-77.
8. Rakhmonazarov, Paxlovon Yigitalievich ХУДУДЛАРДА ИҚТИСОДИЙ-ЭКОЛОГИК ТИЗИМЛАРНИ БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ // Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ududlarda-i-tisodiy-ekologik-tizimlarni-bosh-arish-samaradorligini-oshirish-mehanizmlari>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

